

QOVUN YETISHTIRISHDA MINERAL VA ORGANIK
O‘G‘ITLARNING TA’SIRI

Ruzmetova Quvonchoy
Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti talabasi
ruzmetovaquvonchoy7@gmail.com

Annotatsiya: ushbu tezisda rivojlanib borayotgan tarmoqlardan biri bo‘lmish qishloq xo‘jaligi hamda uning muhim tarmoqlaridan biri qovun yetishtirishning ahamiyati, uning rivoji, hosildorlikni oshirish uchun mineral va organik o‘g‘itlardan foydalanish, ularning ta’siri to‘g‘risida yoritilgan.

Аннотация: В данной диссертации рассматривается значение сельского хозяйства, одного из развивающихся секторов экономики, и выращивания дынь, одного из важных секторов, его развитие, использование минеральных и органических удобрений для повышения урожайности и их влияние.

Abstract: This thesis discusses the importance of agriculture, one of the developing sectors, and melon cultivation, one of its important sectors, its development, the use of mineral and organic fertilizers to increase productivity, and their effects.

Kalit so‘zlar: qovun, mineral, o‘g‘it, organik, qishloq xo‘jaligi, samaradorlik, to‘yintirish, yer, hosil.

Ключевые слова: дыня, минерал, удобрение, органический, сельское хозяйство, эффективность, насыщенность, земля, урожайность.

Keywords: melon, mineral, fertilizer, organic, agriculture, efficiency, saturation, land, yield.

O‘zbekiston kundan kunga rivojlanib, har tomonlama taraqqiy etib borarkan, albatta, uning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lmish qishloq xo‘jaligini ham unutmazlik lozim. Chunki xalqimizning ming yillik tarixida yer va uning ahamiyati alohida o‘rin kasb etadi. Mahalliy xalq hayoti dehqonchilik, bog‘dorchilik kabi sohalar bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun qishloq xo‘jaligining rivoji va unumdorligi davlat iqtisodiyotiga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bu haqda muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagicha fikr bildirgan: “Fermer va dehqonlarimiz qishloq xo‘jaligida asosiy kuch bo‘lib, nafaqat mazkur sohani, balki butun mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimizning turmush darajasini

oshirish, yurtimizni har jihatdan obod va farovon qilishda beqiyos ishlarni amalga oshirayotganini bugun faxr va g'urur bilan, minnatdorlik bilan qayd etamiz.

O'zbek dehqonlari ona zaminimizga, muqaddas tuprog'imizga eng sadoqatli, el-u yurt taqdiri uchun chinakam fidoyi insonlardir. Ularning bunday fazilatlaridan barchamiz o'rnak olsak arziydi."¹ Darhaqiqat, qishloq xo'jaligining unumdorligini oshirish har tomonlama foyda olib keladi. Ayniqsa, bugungi kundagi muhim tarmoqlardan biri bo'lmish qovunchilikning rivoji faoliyatdagi muhim tarmoqlardan biridir.

Qovun yetishtirishda urug'ni ekish, parvarishlash, hosildorlikni oshirish, mahsulotni terish, saqlash – barchasi bosqichma-bosqich olib boriladigan jarayondir. Mana shu jarayonning eng muhim qismi bo'lgan hosilni yetishtirish davrida uni organik va mineral o'g'itlar bilan to'yintirish, bu orqali hosildorlikni oshirish dehqonlarning asosiy vazifalaridan biridir. Negaki organik va mineral o'g'itlar bilan boyitilgan yer maydonining tuprog'i yumshoq, namlikni yaxshi saqlaydigan bo'lib, qovunning nozik ildizlari rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratib, turli kasalliklardan saqlab beradigan, hosilning vaqtida pishib-yetilishiga sabab bo'ladigan omildir. "Mineral o'g'itlar bilan oziqlantirish ham katta ahamiyatga ega, ayniqsa mineral elementlardan fosforga talabchan, azot va kaliyga bo'lgan talabi keyingi o'rinlarda turadi.

Lekin, hamma poliz ekinlari unumdor, mexanik tarkibi yengil tuproqlarda yaxshi o'sib, yuqori hosil beradi. Tuproq muhiti reaksiyasi poliz ekinlari uchun 6,5- 7,5 bo'lishi qulay.

Ammo o'simlik o'sishi, hosil elementlari shakllanishi uchun azot juda zarurdir. Ammo me'yoridan ortiqcha azotning berilishi meva sifatini buzadi, tarkibida nitratlarning ruxsat etilgan me'yordan ortib ketishiga olib keladi."²

Mineral o'g'itlarning bir qancha vazifalari mavjud. Jumladan, azot, fosfor, kaliy kabi mineral o'g'itlar o'simlikning muayyan rivojlanish bosqichlarida muhim:

Azot (N): Poyaning tez o'sishi va barglarning yashil bo'lishini ta'minlaydi. Ammo azot haddan tashqari ko'p bo'lsa, qovun "semirib" ketadi — poyasi ko'p, mevasi esa kam va bemazza bo'ladi.

Fosfor (P): Ildizning mustahkam bo'lishi va gullash jarayonini tezlashtiradi. Mevaning vaqtida yetilishiga yordam beradi.

¹Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar). Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2019,74-b.

²Xayitov M.A.va boshqalar. O'g'it qo'llash qizimi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021, 133-134-b.

Kaliy (K): Qovun uchun eng muhim element. U mevadagi shakar miqdorini oshiradi, po'stini qalin qiladi va qovunni turli kasalliklarga chidamli qiladi.

Qovun yetishtirishda mineral o'g'itlarni organik o'g'itlar bilan integratsiyalashgan holda qo'llash nafaqat hosil salmog'ini oshiradi, balki tuproqning mikrobiologik faolligini tiklaydi. Sifatli va eksportbop mahsulot yetishtirish uchun kaliyli o'g'itlar miqdoriga alohida e'tibor qaratish tavsiya etiladi.

Xorazm vohasining iqlimi va tuproq xususiyatlari poliz ekinlari, xususan, jahonga mashhur qovun navlarini yetishtirish uchun juda qulay. Biroq, tuproqdagi sizot suvlarining yaqinligi va sho'rlanish darajasi o'g'itlash tizimini ilmiy asosda tashkil etishni talab etadi. Tadqiqotlar Xorazm sharoitida keng tarqalgan "Gurvak" va "Zamir" qovun navlarida o'tkazildi. Tajriba variantlarida gektariga 30 tonna chirigan go'ng foni bilan birga N150 P100 K75 me'yoridagi mineral o'g'itlar qo'llanildi. Yurtboshimiz tomonidan Xorazmda qovun yetishtirishga alohida e'tibor berildi. "Xorazm viloyatida ochiq maydonlarda va issiqxonalarda qovun yetishtirishga ixtisoslashgan fermer va dehqon xo'jaliklarini ularning o'z va bo'nak mablag'lari hisobidan mineral o'g'itlar va yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlash"³ kabi

Xorazmning qumoq tuproqlarida mineral o'g'itlar organik o'g'it bilan birga berilganda quyidagi ijobiy natijalar qayd etildi:

Sho'rga chidamlilik: Organik o'g'itlar tuproqning buferlik xususiyatini oshirib, mineral o'g'itlar tarkibidagi tuzlarning salbiy ta'sirini kamaytirdi.

Meva sifati: Kaliyli o'g'itlar (K75) ta'sirida qovunlarning tarkibidagi saxoza miqdori 10-12% gacha yetdi, bu esa Xorazm qovunlarining xushxo'rlikini ta'minladi.

Hosil salmog'i: Kompleks o'g'itlash natijasida hosildorlik gektariga o'rtacha 28-32 tonnani tashkil etib, oddiy usulga nisbatan 20% ga oshdi.

Xorazm vohasi sharoitida qovundan yuqori hosil olish uchun kuzgi shudgor oldidan organik o'g'itlarni to'liq, fosforli va kaliyli o'g'itlarni esa 70-75% miqdorda solish maqsadga muvofiqdir. Bu usul tuproq unumdorligini saqlash bilan birga, eksportbop shirin qovunlar yetishtirish imkonini beradi.

³O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.02.2019 dagi 114-sonli qarori: "Xorazm viloyatida qovun yetishtirish hajmlarini ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida". Ushbu hujjatda viloyatdagi fermer xo'jaliklarini mineral o'g'itlar bilan ta'minlash va qovun eksportini rivojlantirishning strategik rejalari belgilangan. www.lex.uz

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar). Nashrga tayyorlovchilar: O.Salimov, Q.Quronboyev, M.Bekmurodov, L.Tangriyev. – Toshkent: Yoshlar nashriyoti uyi. 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 12.02.2019 dagi 114-sonli qarori: “Xorazm viloyatida qovun yetishtirish hajmlarini ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. Ushbu hujjatda viloyatdagi fermer xo‘jaliklarini mineral o‘g‘itlar bilan ta‘minlash va qovun eksportini rivojlantirishning strategik rejalari belgilangan. www.lex.uz
3. Xayitov M.A.va boshqalar. O‘g‘it qo‘llash qizimi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.